Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....	1168
Kolmatov Sanjarbek Xojimamatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishing asosiy ko'rsatkichlari.....	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choraları .....	1181
Xamraulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budget mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'llim sifatini ta'minlash oliv ta'llim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishing manbalari va yo'llari.....	1232
Raxmanov Ilhom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production .....	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayftidinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiropi va ahamiyati.....	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamatqulov Omonulla Mamayusupov	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



# “ENESSES” MCHJ DA MARKETING MUHITINI TAHLIL QILISH VA TAKOMILLASHTIRISH



Musyeva Shoira Azimovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Marketing kafedrasi professori

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada marketing konsepsiysi, ulgurji savdo faoliyati, mijozlar bilan aloqalarini yanada mustah-kam�ash, raqamli marketing ijmoiy tarmoqlar orqali reklamalar, marketing rejasini ishlab chiqish ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Koxona, marketing muhiti, konsepsiya, ulgurji savdo, bozor, talab, reklama, brend.

**Abstract:** This article discusses the concepts of marketing, wholesale trading activities, further strengthening customer relationships, digital marketing, advertising through social networks, and developing a marketing plan.

**Key words:** Space, marketing environment, concept, wholesale trade, market, demand, advertising, brand.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются концепция маркетинга, оптовой торговой деятельности, дальнейшего укрепления отношений с клиентами, цифрового маркетинга, рекламы через социальные сети, разработки маркетингового плана.

**Ключевые слова:** Предприятие, маркетинговая среда, концепция, оптовая торговля, рынок, спрос, реклама, бренд.

## KIRISH

Mustaqillik yillarda savdo sohasi, ayniqsa, ulgurji savdo sohasida tubdan ro'y bergan ijobiy mulkiy va tashkiliy o'zgarishlar ro'y beraganligiga qaramasdan bu sohada amalga oshirilishi zarur bo'lgan muammolar ko'p. Buning asosiy sababi hozirgi sharoitda ulgurji savdo sohasi subyektlari faoliyat yuritishining bozor mexanizmini, ular faoliyatida xizmat ko'rsatishning zamonaviy iqtisodiy dastaklaridan foydalanish, marketing va bozor imkoniyatlari, xizmat ko'rsatish ko'lami, kommunikatsion aloqalar, xo'jalik yurituvchi boshqa tarmoqlar bilan aloqalari, uni boshqarish va davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish kabilardir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Xorijiy tajribalarga tayanib shuni ta'kidlash lozimki, korxonaning bozordagi raqobatbardoshligi uning bozorga yo'naltirilgan siyosatining samaradorligi bilan belgilanadi. Marketing faoliyatini rivojlantirish va ularni amalda qo'llash bo'yicha ko'plab iqtisodchi olimlar shug'ullanib kelgan. Ular qatoriga F. Kotler, M. Porter, D. Evans, I. Ansoff, M. Berman, M. Golubkov, P. Samuelson, D. Marshall kabi taniqli olimlarni kiritishimiz mumkin.

Mamlakatimizda qator yillar davomida marketing sohasida olib borilgan izlanishlar milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda marketing nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan olimlarni ham e'tirof etish lozim. Bularga R. Ibragimov, Y. Abdullayev, A. Saliyev, M. Sharifxo'jayev, D. Raximova, Sh. Ergashxodjayeva, SH. A. Musayeva va boshqalarni kiritish mumkin.

Marketing muhiti – kompaniyadan tashqarida bozorda faoliyat yurituvchi va kompaniyaning maqsadli mijozlari bilan muvaffaqiyatlari hamkorlik aloqalarini o'rnatish va qo'llab-quvvatlash imkoniyatlariga ta'sir qiluvchi bozor ishtirokchilari, tashqi kuchlar va jarayonlar to'plami. Har qanday kompaniya vakuumda emas, balki ma'lum bir muhitda ishlaydi va muvaffaqiyatga erishadi.

Marketing muhiti deganda korxona marketing xizmati xodimlarining mijozlar bilan yaxshi hamkorlik munosabatlарини о'rnatish va bu munosabatlarning saqlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi subyektlar va kuchlarning majmuyi tushuniladi. Marketing muhiti umuman bozor kon'yunkturasiga va xususan, korxona faoliyati, shu jumladan, bozorning boshqa subyektlariga bevosita ta'sir etuvchi kuchlar va omillar yig'indisidan iborat.

Korxonaning ichki muhitni tahlil qilishning asosiy maqsadi korxona potensialini belgilovchi va unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishdir. Korxona faoliyati o'rganishda quyidagi ichki muhit elementlarini o'rganildi.



Boshqaruvni tashkil etish tuzilmasi, mehnatning taqsimoti, mijozlar faoliyatini o'rganish va boshqarish, CRM tizimlari bilan ishlash, funksional va iyerarxik tarzda, markazlashtirish, asosiy qarorlarni qabul qilish tartibi va usullari, qarorlarni bajarilishini nazorat qilish, boshqaruv axborotlar tizimi, kommunikasion jarayonlar, boshqarish turi, oliy menejment kasbiy mohiyati va darajasi, strategik rejalashtirish tizimi.

Ishlab chiqarish bo'limlari (soni, mutaxassis, quvvati), ijara olingan yoki o'zining ishlab chiqarish bazasi hozirgi holatiga qarab taklif etiladigan tovarlar hajmi, qo'llaniladigan texnologiya turi, mijozlarga xizmat ko'rsatishni tashkil etilishi, ombor quvvati, tovar sifatini nazorat qilish, tahdidsizlikni ta'minlanishi, ishlab chiqarish (qadoqlash, o'rash) kuchi, xizmat ko'rsatishdagi to'g'ridan-to'g'ri yo'qotishlar. Ishlab chiqarish quvvatidan to'liq foydalanish darajasini baholash ham muhim o'r'in tutadi.

Marketingda qo'llaniladigan strategiyalar, bozor (katta-kichikligi, o'rni, raqobatchilar), xaridorlari, korxona imiji, korxona tovarlari, narxi, sotilishi va kommunikasiya siyosati, axborot bilan ta'minlanish holati va tashkil etilishi, o'zaro marketing munosabatlari, ichki marketing, reklama va uning tuzilmalari, mahsulot va tovarlarni siljitchit tadbirlari va boshqalar.

Moliya-iqtisod bo'limi korxona aktivlari, o'zining va qarzga olingan kapitali, kredit imkoniyatlari, korxona buzgalteriyasi, kapital aylanish tezligi va likvidligi, mablag'ni rejalashtirish, yalpi daromad, foya va undan foydalanish. Korxona faoliyatining muhim ko'rsatkichlaridan biri uning rentabelligidir. U olinayotgan daromad ko'rsatkichining (sotuv hajmi, yalpi daromad, ishlab chiqarishga aylanma mablag'lar, asosiy fondlarning tan-narxi va hokazo) nisbati bo'yicha hisoblanadi.

Xodimlar bo'limi tarkibi va malakasi, kasbiy va malakaviy darajasi, kadrlarni shakllantirish siyosati (rejalashtirish, tanlash va vaqtinchalik yollash, ishdan bo'shatish, qo'nimsizligi va hokazo), personal rivojlanishi (kasbiy yo'naltirish va qayta tayyorlash, attestasiya va baholash, yangi ishchilarni sinovdan o'tkazish, xizmat jarayonida o'sishini ta'minlash), mehnatni tashkil qilish va rag'batlantirish, xizmatchilar orasidagi munosabatlarni qo'llash va hokazo faoliyat yuritish.

Korxona ulgurji savdo faoliyati bilan shug'llanayotgan korxona bo'lib, ulgurji savdo bozorining kon'yunk-turasi holati ham ko'rib chiqilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, guruhlash, taqqoslash, omilli tahlil, tan-lanma kuzatish usullaridan foydalanilgan.

**1-jadval:** Mamlakatimizda ulgurji savdoning asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Ulgurji savdo tovar aylanmasi – jami, mlrd. so'm	22001,6	26749,1	30413,0	38301,6	42185,9	63528,5	93322,8	120451,1	172790,1
Tovar zaxiralari (yil oxiriga) jami, mlrd. so'm	5 175,3	6 659,3	7 780,1	9 489,9	10763,3	13166,7	14316,5	22367,4	29 572,5
Tovar aylanmasi kunlarida	85,0	90,0	92,0	89,0	92,0	75,0	55,0	67,0	62,0
Ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmining o'sish sur'ati, o'tgan yillarga nisbatan foizda	109,1	111,0	107,1	116,5	94,0	126,8	128,6	113,6	128,5

Mazkur jadvaldan ko'rinish turibdiki, yildan yilga ulgurji savdoning tovar aylanmasi, tovar zaxiralari va tovarlar aylanmasi ko'rsatkichlari bo'yicha o'sish ko'rsatkichlari keltirilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Korxona doimo marketingga jiddiy e'tibor qaratadi. Zero, ulgurji savdo korxonasi bo'lgani uchun doimo mijozlar bilan munosabatda bo'ladi. Bu esa marketingga bo'lgan munosabatlarning doimo rivojlanishini taqazo etadi. Korxona faoliyatida marketing faoliyatining tashkil etilishi holatiga qarasak, korxonada marketing xizmatini tashkil qilishning 4 ta asosiy tashkiliy tuzilmasi bo'yicha marketingning bozorga va tovarga yo'naltirilgan tashkiliy tuzilmalaridan foydalanimoqda. Va uning tuzilishi quyidagicha hisoblanadi.

Marketing xizmatining tovar ishlab chiqarishga asoslangan tashkiliy tuzilmasi korxonalarga har bir tovar bo'yicha bozor talablariga yaxshiroq moslashishga va ishlab chiqarish texnologiyalari har xil, hayotiy davri qisqa, innovatsion talablar yuqori bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishga imkon beradi (1-chizma).



**1-chizma:** Korxonada marketing xizmatining tovar ishlab chiqarishga asoslangan tashkiliy tuzilmasi

Korxona faoliyatida marketing xizmatining bozorga yo'naltirilgan tashkiliy tuzilmasi marketingni boshqarish tuzilmasining bir turi bo'lib, unda alohida bozorlar menejerlari aniq bozorlarda marketing faoliyati bo'yicha strategiya va rejalarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish uchun javobgardirlar. Marketing xizmatining bozorga yo'naltirilgan tashkiliy tuzilmasi quyidagi chizma orqali ko'rib chiqilgan (2-chizma).



**2-chizma:** Marketing xizmatining bozorga yo'naltirilgan tashkiliy tuzilmasi

Hozirgi vaqtida marketing faoliyatining etnik jihatlari ham ommaviy axborot vositalari, ham kompaniyalarning o'zlarini tomonidan doimiy ravishda muhokama qilinadi, masalan, ichki korporativ siyosatni ishlab chiqishda, mijozlarga xizmat ko'rsatish siyosati, ijtimoiy tarmoqlarda brendni ilgari surish va boshqalar. Ammo ko'pincha bu munozaralar faqat muhokamalar bo'lib qoladi va hatto barcha kompaniyalar qonunlarga riosa qiladi va o'z majburiyatlarini bajaradi.

Korxonda marketologlar bajaradigan funksiyalarida uchta asosiy jihatni ajratilganligi aniqlandi:

- To'g'ridan-to'g'ri kasbiy faoliyat etikasi – marketing xavfli, zararli mahsulotlarni ishlab chiqarish va qayta sotishdan voz kechish, yuqori sifatli mahsulot va xizmatlarni taqdim etish, kontragentlarga nisbatan halollikdir.
- Reklama kampaniyalarida marketing etikasi – halollik, to'g'ri ma'lumotni tarqatish, iste'molchilar va raqobatchilarga hurmatli munosabat (bosma, intruziv reklama formatlari, noaniq xabarlar, qora PR, e'tiborni jaib qilish uchun odamlarning har qanday guruhini haqorat qilishdan bosh tortish).
- Marketing tadqiqotlari etikasi – maxfiylikni hurmat qilish, shaxsiy ma'lumotlarni hurmat qilish, respondentlarga va ma'lumot to'playdigan xodimlarga nisbatan hurmat.

Marketing tadqiqotlarida etikaning ahamiyatini belgilovchi omillar:

- axloqiy qarorlarning aksariyati uzoq muddatli oqibatlarga olib keladi;
- axloqiy qarorlar kamdan kam hollarda yomon yoki yaxshi bo'ladi, qoida tariqasida, u yoki bu darajada maqbul alternativalar mavjud;
- mugobililar ularni baholovchi shaxsnинг nuqtayi nazariga qarab ham ijobji, ham salbiy natijalarga ega;
- natijalarning tabiatи - ular salbiy yoki ijobji bo'ladi yoki yo'qmi, har doim noaniq va oldindan aytib bo'lmaydigan holatdir.
- axloqiy qarorlarning aksariyati kimningdir shaxsiy ishtirokini o'z ichiga oladi.



Korxona faoliyatini o'rganishda marketing konsepsiyaning ish holati va uning mavjudligi o'rganildi. Ayniqsa, korxonaning sotish marketing konsepsiyasidan maqsadli foydalanishi diqqat e'tiborimni tortdi. Ya'ni korxona bugungi kunda ulgurji savdo faoliyati bilan shug'llanar ekan, korxona mijozlar bilan aloqalarni yanada mustahkamlashga, uning imkoniyatlarini to'la qondirishga, marketing mutaxassislarining ish faoliyatiga munosabatlarini jiddiylashtirishga e'tibor qaratilib kelinmoqda. Qolaversa, buyurtmalarni qabul qilishda raqamli marketing konsepsiyanidan ham foydalanilmoxda. Ijmoiy tarmoqlar orqali reklamalar, chegirmalar e'lon qilinib borilmoqda.

Korxona bugungi kunda marketing faoliyatiga e'tiborni kuchaytirish natijasida marketing rejasi ishlab chiqilgan bo'lib, u quydagicha shakllantirilgan.

#### 2-jadval: "Enesses" MChJ marketing rejasi

Bo'limlar	Mazmuni
Kirish	Reja bo'limlarida qisqacha xulosalar
1. Bozor vaziyati va uning istiqbollari	Marketing muhiti, iste'molchilar, raqobatchilar va ularning tovarlari, sotish kanallari to'g'risidagi ma'lumotlar tahlili.
2. Korxona imkoniyatlarining tahlili	Qulay omillar va xavf-xatarni baholash.
3. Moliyaviy va marketing maqsad va vazifalar	Sof foya, sotilishlar hajmi, bozor ulushi, narxlar darajasi, reklama bilan qamrab olish va boshqa ko'rsatkichlar.
4. Marketing strategiyasi bajarilishi	Muommolar, ularni yechishning yo'llari va variantlari.
5. Harakatlar dasturi	Nima qilish kerak? Qachon? Kim shu uchun javob beradi? Natija qanday bo'lishi kerak? Buning qiymati qancha bo'ladi? degan savollarga javob topiladi.
6. Budgetlar	Natijalar va xarajatlarni taqqoslash
7. Nazorat va tartiblashtirish	Tasirchanlikning tahlili va rejadagi harakatlarni o'zgartirish bo'yicha tadbirlar o'tkazish.

Korxona faoliyatini o'rganishda men asosan oziq-ovqat mahsulotlarining ulgurji savdo ma'lumotlari bilan ishlashga e'tiborimni qaratdim.

#### 3-jadval: "Enesses" MChJning 2020-2022-yillardagi oziq-ovqat mahsulotlarini sotish haqidagi ma'lumot

No	Oziq-ovqat mahsulotlari	O'Ichov birligi	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1.	Un mahsulotlari	ming so'm	12387,4	14682,1	16497,3
2.	Makaron mahsulotlari	ming so'm	4387,6	7624,3	10203,5
3.	Go'sht va kolbasa mahsulotlari	ming so'm	16348,2	17863,7	18164,8
4.	Qayta ishlangan va achitilgan sut mahsulotlari	ming so'm	389,2	863,4	1005,4
5.	Muzqaymoq va yaxna ichimliklar	ming so'm	6892,1	10204,1	10043,6
6.	Karamel va konfet mahsulotlari	ming so'm	10657,3	11826,0	9183,2
7.	Boshqa mahsulotlar	ming so'm	35683,2	29591,6	33633,9
	Jami	ming so'm	86745,0	92655,2	98731,7

Jadval ma'lumotlaridan ko'rilib turibdiki, "Enesses" MChJ sining chakana tovar aylanmasida asosiy oziq-ovqat mahsulotlaridan un mahsulotlari 14682,1 ming so'm (2022-yil), makaron mahsulotlari 7624,3 ming so'm (2022-yil), go'sht va kolbasa mahsulotlari 17863,7 ming so'm (2022-yil), qayta ishlangan va achitilgan sut mahsulotlari 863,4 ming so'm (2022-yil), karamel va konfet mahsulotlari 11826,0 ming so'm (2022-yil) tashkil etmoqda.

Korxona savdo faoliyatidan tashqari asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biri maishiy xizmat va servis xizmatlarni ko'rsatish hisoblanadi. Korxona tomonidan bugungi kunda aholiga quydagi xizmatlar ko'rsatilmoqda:

- sartaroshlik, manikur xizmatlari;
- kiyim bichish va tikish xizmatlari;
- telefon, elektron tovarlarni ta'mirlash xizmatlari;
- PayNet xizmatlari;
- Transport xizmatlari va boshqalar.



#### 4-jadval: "Enesses" MChJ ning 2020-2022-yillardagi aholiga maishiy pullik xizmatlar ko'rsatish holati

No	Xizmat turlari	O'Ichov birligi	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1.	Transport xizmatlari	ming so'm	63491,3	66237,2	67436,1
2.	Telefon, elektron tovarlarni ta'mirlash xizmatlari	ming so'm	623,4	649,1	964,2
3.	PayNet xizmatlari	ming so'm	6482,4	6528,4	6829,1
	Jami	ming so'm	78509,3	81254,4	123869,3

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, korxona aholiga servis xizmat ko'rsatishni ham tashkil etib kelmoqda. Xususan, 2022-yil oxiriga kelib, transport xizmatlari 66237,2 ming so'm, telefon, elektron tovarlarni ta'mirlash xizmatlari 649,1 ming so'm, PayNet xizmatlari 6528,4 ming so'mlik xizmatlar ko'rsatilgan.

Korxonaning narx siyosati: oldi-sotdi shartnomasini tuzishda yetkazib beruvchilar va xaridorlar mahsulot qaysi narxda sotilishini belgilashlari shart. Tovarning narxi ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqib, reja-iqtisod bo'lim tomonidan belgilanadi. Hisoblash har bir mahsulot uchun amalga oshiriladi. Narxni aniqlashda qat'iy qoida mavjud: narx tannarxidan past bo'lmasi kerak. Xarajatlardan tashqari, narx qonun bilan belgilangan soliqlarni ham o'z ichiga oladi. Mahsulot birligini sotish narxini hisoblashda quyidagi xarajatlarga ajratiladi va quyidagi yondashuvlar qo'llaniladi:

#### 5-jadval: Mahsulot birligini sotish narxini hisoblashdagi xarajatlar

No	Xarajat moddalarining nomi	Hisoblash usuli
<b>To'g'ridan-to'g'ri xarajatlar</b>		
1.	Xom ashyo	Chegirmali narxlarda
1.1	Xom ashyo	Xom ashyo – bu mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan asosiy va qo'shimcha resurslar hiosblanadi. Qurilish mahsuloti uchun pishirilgan loy, tuproq va cheperitsa asosiy xom ashyo vazifasini bajaradi.
1.2	Yordamchi materiallar	Bosh muhandis tomonidan tasdiqlangan to'g'ridan-to'g'ri material iste'moli stavkalariga muvofiq
2.	Suv	Bosh muhandis tomonidan tasdiqlangan suv va issiqlik energiyasini iste'mol qilish normalariga muvofiq.
3.	Asosiy ishlab chiqarish xodimlarining ish haqi:	U mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bevosita bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish ishchilarini va boshqa ishchilarining ish haqi, shuningdek, ishlamagan (kelmagan) vaqt uchun mehnat qonunchiligidagi nazarda tutilgan to'lovlarni o'z ichiga oladi.
<b>Qo'shimcha xarajatlar</b>		
4.	Qo'shimcha xarajatlar	Buxgalteriya hisobi ma'lum turdagи mahsulotlar va yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqaradigan ishlab chiqarish obyektlari sharoitida amalga oshiriladi.
5.	Umumiy foydalanish xarajatlari	Buxgalteriya hisobi butun kompaniya uchun yuritiladi. Bo'lish usuli har bir mahsulot turi, ish va xizmat uchun asosiy ishlab chiqarish ishchilarining ish haqiga to'g'ridan-to'g'ri proporsional ravishda qo'llaniladi.
6.	Yetkazib berish xarajatlari	Zarur bo'lganda, shartnomaga muvofiq, sotish narxi ularni tashish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olgan holda hisoblanishi mumkin. Bunday holda, hisob-kitobdar transport xarajatlari alohida maqola sifatida ajratiladi.

Xarajatlarni tahlil qilish xarajatlarni boshqarishning eng muhim vositasidir. Uning asosiy maqsadi ishlab chiqarish resurslaridan yanada oqilona foydalanish imkoniyatlarini aniqlash, ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini kamaytirish va foydaning o'sishini ta'minlashdan iborat. Xarajat ko'rsatkichlarini dinamikada tahlil qilish korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatidagi o'zgarishlarni baholash, kelajak uchun proqnoz qilish imkonini beradi.

Xarajatlarni elementlar bo'yicha guruhlash birlashtirilgan va majburiy bo'lib, xarajatlarning shakllanishi, tuzilishi va dinamikasini ularning iqtisodiy mazmunini tavsiflovchi tizimlar orqali nazorat qilish imkonini beradi. Bu haqiqiy va o'tmishtiagi mehnatning nisbatini o'rganish, tovar-moddiy zaxiralarni standartlashtirish va tahlil qilish, aylanma mablag'lar aylanmasining xususiy ko'rsatkichlarini hisoblash va sanoat va umumiy iqtisodiy darajaning boshqa hisob-kitoblarini o'rganish uchun zarurdir. Ishlab chiqarish xarajatlarining elementar tarkibi va strukturasini tahlil qilish ishlab chiqarishning moddiy, mehnat va kapital zichligi darajasiga qarab zaxiralarni izlashning asosiy yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi.



### 6-jadval: 2021-2022-yillardagi korxonada savdo faoliyati xarajatlari va ularning dinamikasi

Xarajat elementlari	2021-yil		2022-yil	
	Hammasi, mln. so'm	Savdo xarajatlardagi o'ziga xosligi, %	Hammasi, mln. so'm	Savdo xarajatlardagi o'ziga xosligi, %
Moddiy xarajatlari:	35000	73,22	50700	77,29
xom ashyo	31000	64,85	45000	68,60
energiya resurslari	4000	8,37	5700	8,69
mehnat xarajatlari	10000	20,9	11500	17,5
ijtimoiy ehtiyojlar uchun badallar	3200	6,7	3300	5,0
Amortizatsiya	450	0,9	510	0,8
boshqa xarajatlari	1380	2,9	1800	2,7
Savdo xarajatlari, jami	47800	100	65600	100
Sotiladigan mahsulotlar	49600		68600	

Ko'proq darajada, bu ko'rsatkich foyda bilan aniq bog'liqlikni ta'minlaydi: xarajatlarning o'sishi har bir ishlab chiqarish rublidan foydaning pasayishiga olib keladi va aksincha. Uning kamchiliklari orasida ushbu ko'rsatkichga subyektiv va obyektiv ko'plab omillar ta'sir qilishi mumkin, ya'ni korxona jamoasining ish sifatiga bog'liq emas.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sotish ham muhim marketing tadbirlaridan hisoblanadi. Sotish jarayonida ham mahsulot assortimenti kengayib boradi. Har bir korxona mahsulot sotishni tashkil etishda o'zining sotuv kanallariga ega bo'lishi talab etiladi. Sotuv kanallari sifatida ishlab chiqaruvchidan iste'molchigacha mahsulotlarni yetib borishida tovarga egalik qilish huquqini oluvchi vositachilar ishtirok etadi.

Bugungi kunda aksariyat korxonalar o'zlarining mahsulotlarini sotish uchun o'z korxonalari balansida bo'lgan savdo korxonalarini faoliyatini yo'lga qo'ymoqda. Ko'pincha, oxirgi iste'molchiga tovarlarni yetkazib berishda ulgurji savdo korxonalarining ahamiyati oshib bormoqda. Bu esa tovarlarni boshqa begona shaxslarga o'tib ketishini oldini oladi. Raqobatni nazorat qilish, xaridorlarga ta'sir qilish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

"Enesses" MChJ bugungi kunda bir qator savdo vositachilarini bilan birga ishlamoqda. Savdo vositachilarining aksariyati Samarqand shahri, Samarqand tumani, Jomboy tumani, Oqdaryo tumani va Pastdarg'om tumani kabi shahar va tumanlarda joylashgan. "Enesses" MChJning asosiy 6 ta savdo vositachilarini orqali 2020-2022-yillarda sotilgan ulgurji savdo tovarlari haqidagi ma'lumotlar 7-jadvalda keltirilgan.

### 7-jadval: "Enesses" MChJ asosiy savdo vositachilarini va ular orqali tovar sotish haqida ma'lumot

No	Asosiy ko'rsatkichlari	O'Ichov birligi	2021-y.	2022-y.	2023-y.
1	"Abdisait savdo" MChJ	ming so'm	432,1	462,4	407,6
2	YATT "Djabborov Alisher Ashurovich"	ming so'm	96,3	104,1	113,2
3	"Ozodbek universal Savdo" MChJ	ming so'm	736,9	1104,2	1436,2
4	"Samarqand gavhar yulduzi" MChJ	ming so'm	1462,3	1643,7	2432,3
5	"Risqiyabonu universal savdo" MChJ	ming so'm	237,4	361,6	401,3
6	"Doston mashal servis" MChJ	ming so'm	70,6	84,2	101,6
	Jami		3035,6	3760,2	4892,2

Jadval ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, qurilish g'isht tovarlar savdo aylanmasi bo'yicha "Samarqand Gavhar Yulduzi" MChJ va "Ozodbek universal Savdo" MChJlarni savdo hajmi yuqori bo'limoqda.

"Enesses" MChJ ning xodimlar faoliyati, mehnat resurslarining xususiyatlari natijalarini o'rgandim. Ya'ni korxona tomonidan sotilayotgan tovarlar, korxonaning mehnat resurslari, iqtisodiy ko'rstkichlari tahlil qilib chiqildi.



## 8-jadval: "Enesses" MChJ mehnat resurslari dinamikasi

№	Ko'rsatkichlar	O'Ichov birligi	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2022-yilning 2021-yilga nisbati	
			+;-	foiz,%			
1.	Xodimlarning o'rtacha soni	kishi	48	56	65	+8	116,6
2.	Xodimlarning o'rtacha bir oylik ish haqi	ming so'm	4 966,0	4 771,0	5 309,0	-195	96,0
3.	Mehnat unumdorligi	ming so'm	40585	50789	65888	+10204	125,1

Jadval ma'lumotlaridan ko'rilib turibdiki, "Enesses" MChJ ishchi-xodimlarning umumiy soni 2022-yil oxiriga kelib 56 kishini tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 8 kishiga oshgan. Mehnat unumdorligi 125,1 foizga yoki 1,25-marta ko'paygan. 2022-yilda jon boshiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish hajmi 40585 ming so'mdan 50789 ming so'mga oshgan. 2022-yilda xodimlarning o'rtacha bir oylik ish haqi 4 966,0 ming so'mdan 4 771,0 ming so'mga kamaygan, ya'ni 96,0 foizga o'sgan.

Korxonada marketing xizmati bo'limida 5 ta marketolog va 5 ta sotuv bo'limi xodimlari o'z ish faoliyatini olib boradi. Ularning jami ishchi xodimlar sonidagi ulushi ham yaxshi. Zero, bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonamizda marketingning o'rni beqiyos. Shu sababdan, mazkur korxonada ham marketing bo'limi faoliyat olib boradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxonada savdo faoliyatini takomillashtirish va ularni rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb bilamiz:

- aholiga arzon va sifatli mahsulotlar sotishning iqtisodiy va huquqiy foydalanish imkoniyatini yaratish;
- ishlab chiqarish, savdo va boshqa xizmatlar sohalarida integratsiyalanish, kooperatsiyalanish jarayonini rivojlantirish mexanizmlarini yaratish;
- ishlab chiqarish va savdo sohasini davlat tomonidan tartibga solishni samarali mexanizmini yaratish;
- iste'molchilar huquqini himoya qiluvchi ishlab chiqarish tashkilotlari faoliyatini faollashtirish va jadal-lashtirish;
- korxona faoliyatida logistic tizimlarni takomillashtirish;
- sotuvdan keyingi servis sifatini yaxshilab o'z vaqtida xizmat ko'rsatishni takomillashtirish;
- ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lib, o'z savdo brendini tanitish;
- savdo sohasida raqobat muhitini ommaviy shakllanishini ta'minlash.

### Adabiyotlar:

1. Gary Armstrong. Philip Kotler. Michael Marker. Marketing in introduction. England, 2016, paperback: 720 pages, Pearson.
2. Philip Kotler. Kavin Lane Ketler. Marketing Management. Pearson Education, Inc. publishing as Prestige Hall, USA, 2012-y.
3. Kotler F., Armstrong G., Vong V., Sonders Dj. Osnovy marketinga, 5-e evropeyskoe izd. Uchebnik. – M.: OOO "I. D. Vilyams, 2013. – 752 s.
4. Soliyev A., Vuzrukxonov S., Marketing, bozorshunoslik. Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2010. – 424 b.
5. Ergashxodjayeva SH. J., Qosimova M. S., Yusupov M. A. Marketing. Darslik. – T.: TDIU, 2011. – 202 b.
6. Musayeva Sh. A. Marketing tadqiqotlari. Darslik "STAR-SEL" MChJ nashriyot va ijodiy bo'limi. Samarqand-2023
7. Musayeva Sh. A. Integrallashtirilgan marketing kommunikatsiyasi O'quv qo'llanma "Mahorat" nashriyoti, Samarqand – 2022.
8. Musayeva Sh. A., Usmonova D. I. Innovatsion marketing "TURON EDITION" 2021-yil uchun o'quv qo'llanma.

# Yashi

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 11-12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

#### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

